

O‘QUVCHI YOSHLARNING ESTETIK KAMOLOTIDA MUSIQANING O‘RNI

A’zamova Muhlisaxon A’zam qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada musiqa san'atining o'quvchi yoshlarda estetik dunyoqarash, badiiy did va ma'naviy tarbiyani shakllantirishdagi roli yoritilgan. Musiqa orqali yosh avlodda go'zallikni his qilish, badiiy qadriyatlarni anglash, madaniy merosga hurmat ruhini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, ta'lim muassasalarida musiqa ta'limining samaradorligini oshirish, estetik tarbiyani musiqiy mashg'ulotlar orqali chuqurlashtirish yo'llari bayon etiladi. Tadqiqot natijalari musiqaning estetik kamolotdagi o'ziga xos o'rnini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: musiqa san'ati, estetik kamolot, o'quvchi yoshlar, badiiy tarbiya, madaniy meros, musiqiy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlodi tarbiyasiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi uzluksiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori O'zbekiston Respublikasi hukumatining olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko'lamida payqash qiyin emas.¹⁸

Qadimgi davrlarda musiqa san'atini o'ziga kasb qilmoqchi bo'lgan yoshlar usta san'atkorga shogird tushib, yillar mobaynida uning uyida yashab, nafaqat ustozning san'at bobidagi mahoratini, balki uning barcha yaxshi fazilatlarini o'ziga singdirib olgan. Vaqt o'tishi bilan ustoz-shogird an'anasi mahorat maktablarining vujudga kelishida poydevor vazifasini o'tagan. Bunday maktablarning samarali faoliyati mazmunida shaxsni jamiyatda kamol topishi va o'z o'rnini belgilashida musiqa haqiqiy ma'nodagi kasbiy tarbiya vositasi ekanligi o'z ifodasini topdi. O'zbek xalqining yuksak milliy qadrqimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Farzand tug'ilishi bilan unga alla orqali ota-onaning orzu umidlari, his'hayajonlari, o'y-kechinmalari ohang orqali singdirilib boriladi. Bola ulg'ayib borgan sari unga turli janrdagi qo'shiq-aytim va

¹⁸ Hamroqulov Naimjon Baxronovich, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7, (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz 3(6), June, 2023.

kuy-ohanglar hamroh bo‘ladi. Qo‘shiq aytimning kuy-ohang va she‘riy ma‘no mazmuni o‘tib kelayotgan yosh avlodni o‘z tarbiyasiga oladi. Bolaning hatti harakatlarida namoyon bo‘la boshlaydi. Bu jarayonda farzandlarimiz qanday kuy qo‘shiq eshitayotganligi orqali uning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarni kuzatib borish mumkin bo‘ladi.

Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqa ta‘limining ahamiyati beqiyosdir. Xususan o‘zbek musiqa san‘ati bu borada katta imkoniyatlarga egadir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” asarida navqiron avlod tarbiyasi haqida gapirar ekan “Eng muhimi bugungi kunda musiqa san‘ati navqiron avlodimizning yuksak ma‘naviyat ruhida kamol topishida boshqa san‘at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq tasir ko‘rsatmoqda”¹⁹ deb ta‘kidlagan edi.

O‘quvchilarning musiqa san‘atiga qo‘shiq kuylash orqali olib kirish, musiqiy estetik tarbiyasining yangi yo‘llarini izlash, uni nazariy jihatdan asoslab berish, musiqiy pedagogikaning doimo diqqat markazida bo‘lgan muammolaridir. Qo‘shiq kuylash har - bir bola uchun estetik hissiyotlar, kayfiyatlar va badiiy ehtiyojlarini ifodalashning oddiy va tabiiy yo‘lidir. Qo‘shiqning ifodasi, ijrosi bolalarning hissiy ta‘sirchanligini o‘stirib, musiqiy obrazlarni yanada chuqurroq tushunishlariga, ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishda yordam beradi. Qo‘shiq kuylash tufayli bolalarda metodik garmonik, eshituv musiqiy xotira, matnining badiiy mazmunini tushunish kabi qobiliyatlari rivoj topadi, kuylash apparati mustahkamlanadi. Qon aylanish yaxshilanadi. Bolalar qo‘shiqchiligi nafaqat mahsus pedagogikaning tadqiqot predmeti, balki estetika, metodika, psixologiya, fiziologiya, san‘atshunoslik sohalari ham qo‘shiqchilikning ko‘pgina jihatlarining tadqiqi bilan shug‘ullanadi. Hozirgi davrda bolalar vokal tarbiyasi asosan umumta‘lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida zamoaviy (xor) aytish faoliyati sinfdan tashqari xor, maqom, falklor ansamllari asosida olib boriladi. Jamiyatning kelajagi, ravnaqi va taraqqiyoti tarbiya bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, tarbiya inson tafakkurini yuksaltiradi. Bolalarda O‘zbekona milliy g‘ururni ma‘naviy ongini yuksaltirish, uning milly an‘analariga, tilimiz va madaniyatimizga muhabbat va hurmat ruxida tarbiyalash, tarbiya muammolarini to‘la hal qilish pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biridir. Tarbiya, xususan milliy tarbiya, davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbek xalqining tarixiga nazar tashlansa, bir umr tarbiya muammosini hal qilish asosiy o‘rinni

¹⁹ I.Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma‘naviyat” 2008 yil

egallagan. Mashxur Yusuf Xos Hojib, Al-Beruniy, Al-Farobiy singari olimu-u shoirlarimiz o‘z asarlarida ham tarbiya masalasida alohida e‘tibor berishgan.²⁰

Zamonaviy ta‘lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni go‘zallikni anglashga, qadrlashga va yaratishga o‘rgatishdir. Bu jarayonda musiqa san‘ati eng ta‘sirchan vositalardan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Musiqa inson qalbiga bevosita ta‘sir etadi, ruhiy olamni boyitadi, ma‘naviy kamolotga zamin yaratadi. Ayniqsa, o‘quvchi yoshlarning shakllanish davrida musiqaning roli ulkan bo‘lib, ularning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va estetik zavqini tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Musiqa orqali o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish, badiiy ifodaning nozik tomonlarini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash hissi shakllanadi. Bolalar qo‘shiqlari, xalq kuy-qo‘shiqlari, klassik asarlar, zamonaviy musiqiy namunalar yoshlarning didini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi musiqa darslarida nafaqat eshitish va ifodalash orqali san‘at bilan tanishadi, balki ijodkorlik faoliyatiga ham kirishadi. Bu esa uning o‘z fikrini estetik shaklda ifodalash, his-tuyg‘ularini boshqalar bilan bo‘lishish qobiliyatini oshiradi.

O‘quvchilarning estetik kamolotini ta‘minlashda musiqa ta‘limining tizimli tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa fanini o‘qitishda quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi:

- o‘quvchilarda musiqiy eshituv, ritm va intonatsiyani rivojlantirish;
- xalq og‘zaki ijodiga hurmat uyg‘otish;
- milliy va jahon musiqiy merosini tushunishga yo‘naltirish;
- musiqiy madaniyat va axloqiy qadriyatlarni uyg‘un holda singdirish.

Shuningdek, musiqiy to‘garaklar, tanlovlar va kontsertlar orqali o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy faoliyati yanada oshadi. Bu orqali ular ijtimoiy faol, ma‘naviy yetuk, estetik qarashlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanadi.

Barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta‘limda ham milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topadi. Musiqa san‘atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo‘lib yetishishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa ta‘limidan davlat ta‘lim standartlari asosida yangi ta‘lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta‘minlaydi.

²⁰ Ahmadjon Yuldashyev Oltinoy Mahmudova, "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February 2023.

O‘quvchilarning musiqiy estetik rivojlanishlari uchun o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida sidqidildan tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o‘tilishini ta’minlashi lozim. Zero, dars o‘qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Samarasiz, omadsiz dars, kamchiliklar uzoq vaqt o‘qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi. Musiqa madaniyati darsi – maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishning asosiy shaklidir. Musiqiy to‘garaklar, fakultativ mashg‘ulotlar ham amaliyotda bo‘lsada, dars hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Musiqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o‘z ichiga oladi. Bular - ommaviy jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, savodxonlik, musiqa ijodkorligi, bolalar cholg‘u asboblari chalish faoliyatidir. Musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, “Musiqa tarbiyasiz bolalarga aqliy tarbiyani etarli darajada bajarib bo‘lmaydi”. Shuning uchun musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir.²¹

Musiqa aniq vaqt o‘lchovi bilan bog‘layotgan san’atdir. Ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini ilib olib tinglamasa, asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun klassik asarlarni ham bir qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz. Musiqa vositasida ifodalanadigan his-tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalash qiyin. “Qachonki so‘z o‘z o‘ziga qilsa, musiqa yordamga keladi”. Uchinchidan, musiqa bolalarga faol estetik ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg‘otadi. Yahshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar quvnoq, xursand bo‘lib, xordiq chiqaradilar. Demak, agar musiqa darsi oxirgi darsda qo‘yilgan bo‘lganda ham, bolalar hordiq chiqarib, charchoqlari tarqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirkhanovich, S. B. (2024). The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 19-22.
2. Shokirkhonov, B. (2026, February). DEVELOPMENT OF STUDENTS’PERFORMING AND MUSICAL ABILITIES THROUGH INSTRUMENTS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 77-79).
3. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(7), 139-150.

²¹ Sadritdin Niyozovich Gulov, «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5, UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI, www.scientificprogress.uz.

4. Toshmatov, G. U. O. (2026). Musiqa ta’limi jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 7(2), 195-201.
5. Тошматов, Г., & Турдалиева, О. (2023). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШГА ҚИЗИҚТИРИШ ОМИЛЛАРИ. Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований, 3(6), 162-166.
6. Olimjonovich, T. G., & Komiljanovna, D. G. (2022). The Importance of the Festival “East Songs” in the Introduction and Development of National Classical Music of the Peoples of the East. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 195-199.
7. Abduraimov, S. (2024). METHODS OF USING PRACTICAL METHODS IN MUSIC CULTURE LESSONS IN HIGH SCHOOLS. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(6), 22-25.
8. Abduraimov, S. Z. (2024). MUSIQA TO ‘GARAKLARI ASOSIDA O ‘QUVCHILARDA MILLIY RUHIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 44-51.
9. Erdonov, S. B., Maxmudov, A. V., Abduraimov, O. S., Allamurotov, A. L., Mavlanov, B. J., & Mamatkasimov, O. T. (2023). On Reserves of *Hippophae rhamnoides* L. Fruit on the Territory of the Zarafshan National Nature Park of Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14, 946-954.
10. Asrakulova, A. (2025). ECONOMIC VIEWS OF ABU NASR FORABI. *Инновационные исследования в науке*, 4(2), 65-68.
11. Nabievna, A. A. (2025). ECONOMIC THOUGHTS OF YUSUF KHOS KHOJIB. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 3(2), 212-214.
12. Asrakulova, A. (2025, February). HISTORICAL-PHILOSOPHICAL AND PUBLIC ADMINISTRATION ISSUES IN NIZAMULMULK’S “SIYOSATNOMA”. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 4, No. 2, pp. 85-88).
13. Jurayeva, G. (2025). TALABALARNING O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK MAHORATLARINI OSHIRISHDA USTOZ-SHOGIRD AN‘ANALARINING O‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 535538.
14. Jurayeva, G. (2024). MUSIQA FANIDA XALQ CHOLG‘ULARINI O‘RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal*, 1(1).
15. Jo‘Rayeva, G. Z. Q. (2026). STEM yondashuvi asosida musiqa nazariyasi ta’limini rivojlantirish yo ‘llari. *Science and Education*, 7(2), 169-174.
16. Akhmedov, B. (2026, February). THE ROLE OF MUSIC IN THE FORMATION OF PERSONALITY. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 72-76).
17. Akhmedov, B. (2026, February). TECHNICAL AND EXPRESSIVE ASPECTS OF THE CONDUCTING APPARATUS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 68-71).
18. Ahmedov, B. S. (2026). Umumta’lim maktablari musiqa darslarida musiqa tinglash jarayonining metodik asoslari. *Science and Education*, 7(2), 182-187.
19. Tajiboyev, E. (2025). O ‘ZBEK MILLIY QADRIYATLARINING TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O ‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3).
20. Tajiboev, E. (2025). ORGANIZATION OF AN OUT-OF-CLASS MUSIC CLUB IN COMPREHENSIVE SECONDARY SCHOOLS. *Развитие и инновации в науке*, 4(2), 13-16

21. Tajiboyev, E. M. (2026). Scientific and pedagogical foundations of developing the skills of listening to national music in higher education system. *Science and Education*, 7(1), 1038-1043.
22. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). O ‘quvchilarning STEAM ta’lim texnologiyalarini qo ‘llash asosida muammolarni yechish ko ‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(2), 157-161.
23. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqiy mashg ‘ulotlar orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(3), 388-391.
24. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqa ta’limida STEM texnologiyalari va milliy musiqa integratsiyasi. *Science and Education*, 7(3), 392-395.
25. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta’limi yo ‘nalishi talabalarida ritmik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. *Science and Education*, 7(1), 960-965.
26. Odilova, G. (2025). MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR BILAN ISHLASHDA MULOQOT TEXNOLOGIYASIDA. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 367-370.
27. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta’limi orqali bolaga emotsional yondashish tendensiyalari. *Science and Education*, 7(2), 162-168.
28. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
29. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
30. Joraxanovich, G. J. (2025). XIX ASR OHIRI XX ASR BOSHLARIDA YEVROPADA MUSIQA PSIXOLOGIYASI RIVOJLANISHI. *Научный Импульс*, 4(37), 157-161.
31. Muhammadjon o‘g, O. R. A. (2025, December). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA PEDAGOGIKA YO ‘NALISHI TALABALARI KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATION METODIKASI. In Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 1156-1159).
32. Muhammadjon o‘g, O. R. A. (2025). MUSIQA TA’LIMINI BARCHA TALABALAR UCHUN INKLYUZIV TARTIBDA TASHKIL ETISH. “Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 1(2), 3-9.
33. Tursunov R. “Xalq musiqa ijodiyoti va amaliyoti”. Toshkent. “Ma’rifat madadkor” nashriyoti. 2002 yil.
34. M Qodirov R. Boshlang‘ich maktabda ko‘povozli kuylash. Toshkent. “O‘qituvchi” 1997 yil
35. A.Yuldashev “TA’LIM TO‘G‘RISIDAGI QONUN”, “ KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI”VA MUSIQIY TA’LIM TIZIMIDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIKNI AHAMIYATI. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. Февраль 2021. г.Повлодар.
36. Ahmadjon Yuldashev, Oltinoy Mahmudova “Uzbek Folk instruments and Their Place in the Development of our National Culture” *ACADEMIK JOURNAL*. 23.09.2022. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT Vol 2 No. 9 <https://literature.academicjournal.io>.
37. Imomaliyevich, Boratov Shukurjon. "THE PATH OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEK FOLK MUSIC CREATIVITY." *ASIA PACIFIC*

JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.11 (2022).

38. D.Kabalevskiy «Bolalarga musiqa darsida qanday soʻzlash kerak» 1977y.
39. SHavkatovna, Djumaboeva Muqaddas. "GENESIS OF CRISIS EVENTS IN DOMESTIC ARTISTIC AND CREATIVE (MUSICAL) PEDAGOGY." World Bulletin of Social Sciences 3.10 (2021).
40. Sh, Jumaboyeva M. "FORMING THE CHILD'S PERSONALITY IN THE PROCESS OF ACQUIRING MUSICAL KNOWLEDGE." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.11 (2022).
41. R Rasulova, Saida Sabirovna, and Orif Tursunovich Tillahojayev. "PECULIARITIES OF TRAINING MUSIC TEACHERS FOR INNOVATIVE EDUCATIONAL ACTIVITIES." Academic research in educational sciences 2.Special Issue 4 (2021).
42. Sabirovna, Rasulova Saida. "BASIC PRINCIPLES OF VOCAL PEDAGOGY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022).
43. Marotta, Francesco, et al. "Liver protection: ancient empirical roots, marketing oversimplifications and novel molecular-biology-endowed compounds." Bioactive Compounds in Health and Disease 3.12 (2020).